

O‘ZBEK MILLIY URF-ODATLARIGA OID MAQOLLAR VA ULARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

*Sherdjanova Sevara Qahramanovna, Urganch Ranch
texnologiya universiteti o‘qituvchisi*

ПОСЛОВИЦЫ ОБ УЗБЕКСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБЫЧАЯХ И ИХ ЛИНГВО- КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ

*Шерджанова Севара Кахрамановна, преподаватель
английского языка Ургенчского технологического
университета Ранч*

PROVERBS RELATING TO UZBEK NATIONAL TRADITIONS AND THEIR LINGUO-CULTURAL FEATURES

*Sherdjanova Sevara Kahramanovna, Teacher of Urganch
Ranch University of Technology*

Annotatsiya: *To‘y marosimlari har bir millatning madaniy merosi va ijtimoiy hayotining muhim qismi hisoblanadi. O‘zbek xalqining to‘y marosimlari bilan bog‘liq maqollarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan o‘rganish orqali ushbu xalqning an‘anaviy qadriyatlarini, urf-odatlarini, milliy xarakteri va mentaliteti haqida ko‘plab ma‘lumotlar taqdim etish mumkin. Bu maqollarning lingvistik jihatlari tushunish orqali til va madaniyat o‘rtasidagi chuqur o‘zaro bog‘liqlikni anglash imkoniyati yaratiladi, bu esa zamonaviy tilshunoslikda dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda. Til va madaniyatning yaqinligi va o‘zaro bog‘liqligi ularni yagona metodologik asosda o‘rganish imkonini beradi. Mazkur maqolada o‘zbek xalqi to‘y marosimlariga oid maqollar va ularning lingvomadaniy xususiyatlari, til va madaniyat o‘rtasidagi munosabat misollar asosida muhokama qilinib, tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *maqol, lingvomadaniy, an‘anaviy qadriyatlar, to‘y marosimi, zamonaviy lingvistika, til, ijtimoiy hayot, madaniyat, xalq.*

Abstract: *Wedding ceremonies are a vital part of the cultural heritage and social life of every nation. By studying the proverbs of the Uzbek people related to wedding ceremonies from a linguocultural perspective, a lot of information can be provided about the traditional values, customs, national character, and mentality of these people. Understanding the linguistic aspects of these proverbs creates an opportunity to understand the deep interrelationship between language and culture, which is becoming increasingly important in modern linguistics. The closeness and interdependence of language and culture make it possible to study them on a single methodological basis. This article discusses and analyzes the proverbs of the Uzbek people related to wedding ceremonies and their linguocultural characteristics, as well as the relationship between language and culture based on examples.*

Keywords: *proverb, linguocultural, traditional values, wedding ceremony, modern linguistics, language, social life, culture, people.*

Аннотация: *Свадебные обряды являются важной частью культурного наследия и общественной жизни каждого народа. Изучая пословицы, связанные со свадебными обрядами узбекского народа, с лингвокультурологической точки зрения, можно получить много информации о*



<https://orcid.org/0009-0002-1243-3850>

e-mail:

sevara.sherdjanova88@mail.ru

традиционных ценностях, обычаях, национальном характере и менталитете этого народа. Разобравшись в языковых аспектах этих пословиц, можно понять глубокую взаимосвязь языка и культуры, которая приобретает все большее значение в современной лингвистике. Близость и взаимозависимость языка и культуры позволяют изучать их на единой методологической основе. В данной статье на примерах рассматриваются и анализируются пословицы, связанные со свадебными обрядами узбекского народа, их лингвокультурными особенностями, взаимосвязью языка и культуры.

Ключевые слова: пословица, лингвокультурологическая, традиционные ценности, свадебный обряд, современное языкознание, язык, общественная жизнь, культура, народ.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Biz bilamizki, urf-odat va marosimlar turli xil millat vakillari uchun ajdodlardan qolgan bebaho merosdir va asosiysi ular bilan jahon madaniyatida o'ziga xos o'rin egallaydi. Marosim haqida fikr yuritadigan bo'lsak – bu milliy urf-odatlariga tayangan holda o'tkaziladigan jamoa yig'inlaridan biri bo'lib, insoniyat hayot tarzining asosini tashkil etadi[1]. Shu bilan birgalikda milliy marosimlar insoniyat hayoti mobaynida paydo bo'lib rivojlanib boradi va ular turli millatning qadriyatlarini, shuningdek milliy o'zligini namoyon etishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, mustaqillik bizga avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy udumlarimizga erkin amal qilish imkoniyatini berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda azaldan to'y-tomosha oshuftasi bo'lgan o'zbek xalqining to'y marosimlariga oid an'analari nafaqat shodlik va quvonch sifatida namoyon bo'ladi, balki ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, asrlar davomida saqlanib kelgan diniy urf-odatlar majmuini ham o'z ichiga oladi. To'y insoniyatning aql-zakovati, tabiiy, ma'naviy-axloqiy va huquqiy ehtiyojlari hamda talablariga asoslanib shakllangan, uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan, bugungi kungacha yetib kelgan va kelajakda ham ma'naviy qadriyatlarimizning ajralmas qismi sifatida saqlanadigan noyob hayotiy marosimdir[1].

Aytish joizki, o'zbek to'y marosimlari xalqimizning boy madaniyati va urf-odatlarini bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir to'y – bu nafaqat oila va jamiyat uchun muhim tadbir, balki o'zida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va odob-axloq me'yorlarini aks ettiradi. Shu jihatdan, to'y marosimlariga oid maqollar xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribasini, madaniyatini, insoniy munosabatlarini o'zida mujassam etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O'zbek

adabiyotining buyuk vakillaridan biri, yozuvchi Tog'ay Murod shunday degan edi: "Xalqni xalq qiladigan narsa nima? Bu uning urf-odatlarini! Otabobolaridan meros bo'lib kelgan milliy an'analari bilan xalq o'zligini namoyon etadi!"[1]

Maqollar xalq og'zaki ijodining qadimiy va umumjahon janri bo'lib, turli xalqlar va madaniyatlarda keng o'rganilgan. Chet ellik olimlar ham maqollarning lug'aviy, madaniy va ijtimoiy ahamiyatini yuqori baholashgan. Ularning fikrlari maqollarning xalq hayotidagi roli, ularning universal va milliy xususiyatlari, jamiyat va tilda tutgan o'rnini tushunishda katta ahamiyatga ega. Paremiologiya sohasida yetakchi mutaxassis bo'lgan Wolfgang Mieder maqollarni xalq og'zaki ijodining noyob namunasi sifatida o'rganib, ularni turli madaniyatlar uchun umumiy va muhim bo'lgan hikmatli iboralar deb ta'riflaydi. Mieder maqollarni nafaqat tahlil qilish, balki ularning ijtimoiy hayotdagi o'rnini ham tushunish zarur deb hisoblaydi. U maqollarni universal lingvistik fenomen sifatida ko'rib chiqadi.

"Proverbs are the wisdom of the people; they are culturally specific, but they also hold universal truths. Their ability to encapsulate human experience in a few words makes them timeless".

(Maqollar xalq donishmandligining ifodasidir; ular madaniy jihatdan o'ziga xos bo'lishi bilan birga, umumiy haqiqatlarni ham aks ettiradi. Ularning inson tajribasini bir necha so'zda ifoda etish qobiliyati ularni abadiy qiladi) [2].

Amerikalik folklorshunos va tilshunos Archer Taylor maqollarni o'zining fundamental tadqiqotlarida o'rganib, ularni "ko'hna va hikmatli so'zlar" deb atagan. Uning fikricha, maqollar milliy va etnik xususiyatlardan tashqari, global madaniyatning ajralmas qismiga aylangan. Taylor maqollarni ko'pincha qisqa va ma'noli iboralar sifatida xalqning muhim tajribalarini umumlashtiruvchi vosita deb biladi.

“The definition of a proverb is too difficult to handle, but the essence of a proverb is its ability to express collective wisdom in a simple and memorable form”.

(Maqolning aniq ta’rifini berish qiyin, lekin maqolning mohiyati shundaki, u jamoaviy donolikni sodda va esda qolarli shaklda ifodalaydi)[3].

MUHOKAMA(OBSUZHDENIE/DISCUSSION)

O‘zbek olimasi N.Abdullayevaning maqollarga bergan ta’rifini keltirib o‘tsak maqsadga muvofiqdir: “Maqol – insonlarning hayotiy tajribasi, ko‘nikmalari, jamiyatga bo‘lgan munosabati, tarixi, ruhiyati, etik va estetik his-tuyg‘ulari, shuningdek, ijobiy va salbiy fazilatlarini aks ettiruvchi, tugal ma’noga ega bo‘lgan murakkab til birligidir. Asrlar davomida xalq orasida sayqallanib, maqollar ixcham va sodda poetik shaklga ega bo‘lib keladi. Maqollar uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba’zan ko‘p ma’nolilik, majoziy ma’noga boylik kabi xususiyatlar xosdir. Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to‘playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqollar ana shunday bebaho ma’naviy merosimiz hisoblanadi”[4].

Darhaqiqat, har bir xalqning og‘zaki ijodida turli mavzularni qamrab olgan maqollar mavjud bo‘lishi mumkin. Shu jumladan, to‘y marosimlariga oid maqollar: “Kelinning keldisi yaxshi, To‘yning bo‘ldisi yaxshi”. Ushbu maqolada o‘zbek xalqining to‘yi bilan bog‘liq bir nechta maqollar va ularning lingvomadaniy xususiyatlari o‘rganilib tahlil qilingan.

O‘zbek xalqining “Kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyganda ko‘r” maqoli nikoh to‘yidan keyin o‘tkaziladigan sep tarqatar marosimi asosida shakllangan. Tilshunos N.Kurbannazarova o‘zining “Surxondaryo vohasi to‘y marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy tadqiqi” nomli dissertatsiyasida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Sep – kelinning o‘zi olib kelgan sovg‘a-salomlardir. Qadimda sep tarkibida faqat kelinning o‘z qo‘llari bilan tayyorlangan buyumlar bo‘lgan. Bunga turli taqinchoqlar, kashtalar, dastro‘mollar, yosh bolalar uchun tikilgan do‘ppilar, to‘qilgan paypoqlar, qavilgan nimchalar va choponlar kirgan. Bundan tashqari, qora uylarga tushiriladigan kelinlar qora uylarni bog‘lab turish

uchun 6 ta qizil va 6 ta oq bog‘ to‘qib kelganlar. Sepning asosiy maqsadi yangi kelinning hunarmandlik va mahoratini jamoatchilikka ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan”[5]. Shuning uchun xalq orasida “Kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyganda ko‘r” va “Sepli kelin, epli kelin” kabi maqollar paydo bo‘lgan”.

NATIJALAR (PEZULTATY / RESULTS).

O‘zbek to‘ylariga oid maqollar madaniyat, jamiyat va tilning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatib beradi. Lingvistik jihatdan maqollar xalqning qisqa va aniq ifodalariga ega bo‘lib, ularning semantik mazmuni keng bo‘ladi. Masalan, “to‘y” tushunchasi o‘zbek madaniyatida nafaqat nikoh marosimini, balki insonlar o‘rtasidagi rishtalarni mustahkamlovchi, jamiyatni birlashtiruvchi tadbirni anglatadi. Maqollarda ko‘p uchraydigan “kuyov”, “kelin”, “to‘palon” kabi so‘zlar xalqning to‘y marosimlariga bo‘lgan an’anaviy munosabatini ifodalaydi[6].

Madaniy jihatdan, o‘zbek to‘ylariga oid maqollar orqali xalqning urf-odatlarini, ijtimoiy qadriyatlarini va oilaviy munosabatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, qizning oila va jamiyatdagi o‘rni, kuyovning mas’uliyati va to‘y marosimlarining tantanalari madaniyatning ajralmas qismi sifatida ifodalanadi. Bu maqollarda o‘zbek xalqining mehmondo‘stligi, saxovatligi va birdamligi kabi ijtimoiy fazilatlarini aks etadi[7].

XULOSA (ZAKLYUCHENIE / CONCLUSION).

O‘zbek to‘y marosimlariga oid maqollar xalqning boy madaniy merosi, urf-odatlarini va hayotiy tajribasini o‘zida mujassam etgan. Ular xalqning lingvistik boyligini, ma’naviy va madaniy qadriyatlarini yoritib beradi. Maqollar orqali xalqimizning oilaga, to‘y marosimlariga va jamiyatga bo‘lgan munosabatini, avlodlar davomiyligini va an’analarining bardavomligini anglashimiz mumkin. Ushbu maqollar milliy o‘ziga xoslikni, xalqning hayotga va oila munosabatlariga bo‘lgan nuqtayi nazarini aks ettiruvchi noyob til vositalaridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Tog‘ay Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”. Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2009. -B47.
2. Mieder, Wolfgang. 2004. Proverbs: A Handbook. Westport: Greenwood Press.
3. Archer Taylor. 1931. The Proverb. Cambridge, Mass., Harvard University Press.

4. Abdullayeva N.E. Ingliz va o'zbek xalq maqollaridagi graduonimik munosabatlarning lingvopragmatik xususiyatlari. Filol.fan.bo'yicha falsafa doktori...diss. – T.: 2019. – B. 47.
5. N.Kurbanazarova. Surxondaryo vohasi to'y marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy tadqiqi. – Termiz, 2021, -B 80.
6. Shodmonov, U. (2020). **O'zbek tilida maqollar va ularning lingvistik tahlili**. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. Ashirov A.A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. –T., 2009.
8. Курбанбаева, М. (2024). Использование русских народных сказок в процессе изучения языка и формирования гуманизма у детей. Тамaddun nuri jurnali, 5(56), 520-522.
9. Курбанбаева, М. (2023). Пословицы и поговорки со схожим значением в русском и узбекском языках и общность народной мудрости. Тамaddun nuri jurnali, 4(43), 15-18.

